

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ERBUTAYEVA SHALOLA UTKIROVNA

O‘ZBEK TILIDA KO‘MAKCHILASHISH HODISASI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Erbutayeva Shalola Utkirovna

О‘zbek tilida ko‘makchilashish hodisasi 3

Эрбутаева Шалола Уткировна

Явление постпозиционализации в узбекском языке 23

Erbutaeva Shalola Utkirovna

The phenomenon of postpositionalization in the Uzbek language 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 50

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ERBUTAYEVA SHALOLA UTKIROVNA

O‘ZBEK TILIDA KO‘MAKCHILASHISH HODISASI

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Jizzax – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
R2023.2.PhD/Fil3318 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) ilmiy kengashning veb sahifasi
(jdpu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)ga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Pardayev Azamat Baxronovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Ermatov Ixtiyor Rizoqulovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Urinbayeva Dilbar Bazarovna
filologiya fanlari doktori, professor


Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil " 9 " 12
soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4.
Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jspi_info@mail.uz) Jizzax davlat
pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (11 - raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh
ko'chasi 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-76; faks: (872) 226-46-56.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil " 24 " 11
(2025-yil " 24 " - 11) kuni tarqatildi.
dagi 13 -raqamli reyestr bayonnomasi).


U.A. Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filologiya fanlari
doktori, professor


A.N. Xadjimusayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filologiya fanlari
doktori (PhD).


U. Qosimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filologiya fanlari doktori,
professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida leksik va morfologik sath tarkibida yuz berayotgan o'zgarishlarga oid salmoqli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jamiyatdagi turli o'zgarishlar va tilning muttasil taraqqiy etishi natijasida mustaqil ma'noli so'zlar o'z lug'aviy ma'nosini sekin-astalik bilan yo'qotib boradi va bu jarayon so'z turkumlari transpozitsiyasini yuzaga keltiradi. Natijada morfologik sath o'z tarkibini derivatsiya, kalkalash va transpozitsiya hodisalari vositasida kengaytiradi. Tilshunoslikda ushbu jarayonlar ko'chish tushunchasi bilan umumlashtiriladi. Ko'chish hodisasi bevosita morfologik sathda yuz beradi, lekin ayni damda leksik sath bilan hamkorlikda voqelanadi. Tilshunoslikda transpozitsiya va unga yondosh hodisalar mavjud bo'lib, ushbu jarayonlar tilning morfologik sathini boyitadi, leksik sathga ma'lum darajada ta'sir etishi bilan ahamiyatga ega hisoblanadi. Jahon tilshunosligida ko'chish hodisasiga oid tadqiqotlar ko'lamining kengligi ayni tushunchaning keng qamrovli ekanligidan dalolat beradi. Zamonaviy tilshunoslikda transpozitsiya hodisasini tadqiq etish orqali uning tarkibida qaraluvchi ko'makchilashish (prepozitsionalizatsiya) haqida aniq, mukammal to'xtam va xulosalarga kelish alohida dolzarblik kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida morfologik birliklarning shakli va mazmuniy jihatdan o'zgarishlarga uchrashi, ma'nosi hamda vazifalaridagi turlanishlar tarixiy-an'naviy, qiyosiy-chog'ishtirish, diaxron va sinxron aspektda ma'lum darajada tadqiq etilgan. Tilning tarixiy taraqqiyotidagi o'zgarishlar bugungi kunda morfologik sath birliklarini muayyan darajada barqarorlashtirdi. Binobarin, ko'makchilashish hodisasining shakllanishida leksik va sintaktik sathga xos kategorial ma'no asosiy maydonga chiqadi. So'z ma'nosidagi semantik o'zgarishlar til taraqqiyotida birdan ko'zga tashlanmaydi. Demak, ushbu hodisaning yuzaga kelishiga asosiy sabab leksema semasidagi xiralashuv hisoblanadi. Bu jarayon esa yordamchi so'zlar sirasida qaraluvchi ko'makchilarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, tarkibining mustaqil so'zlar hisobidan konversiya va transpozitsiya jarayonlari natijasida kengayib borishi, bu turkum so'zlarning o'zaro munosabati, morfologik tizimdagi o'rni masalasini tadqiq qilish zarurati yuzaga keladi.

O'zbek tilshunosligida yordamchi turkum so'zlari doirasida qaraladigan ko'makchilar faqatgina grammatik vazifa bajaribgina qolmasdan, ekspressiv ma'no ifodalashda faol ishtirok etishi, mustaqil so'zlarning ko'makchilashish jarayoni leksik ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'no ko'rsatishga xoslanishi xususida muayyan tadqiqotlar yuzaga kelgan. Shu bilan bir qatorda, leksik birlikning mustaqil turkumdan yordamchi turkum doirasiga ko'chishi, ko'makchilashgan va ko'makchilashayotgan birliklarning lisoniy xususiyatlarini tahlil etish, ko'makchilashayotganlik bosqichlariga ajratish, uning til tizimidagi o'rni, tub mohiyatini anglash, baholash, nutqiy muloqotdagi vazifasini belgilash, ekspressiv vosita sifatidagi imkoniyatlarini aniqlash mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF–6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2021-yil 25-yanvardagi PQ–4963-son “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiya rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ko‘makchilashish hodisasi so‘z turkumlari aro konversiya negizida sodir bo‘ladigan jarayon hisoblanadi. Konversiyaning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, jahon tilshunosligida “transpozitsiya”, “konversiya”, “substitutsiya”, “formatsiya” terminlari o‘tish jarayonini ifodalaydi. Lingvistik terminlar lug‘atlarida transpozitsiya bir lisoniy shaklning boshqa vazifada, uning paradigmatic qatorda zid turishi sifatida talqin qilinadi¹. So‘z turkumlari aro ko‘chish muammosining muhimligi masalasi L.Shcherba² tomonidan ta’kidlangan, D.Rozental va M.Telenkova³lar hammuallifligida yaratilgan lingvistik lug‘atda “ko‘chgan” so‘zni tahlil qilish tamoyillari keltirilgan. Tilshunos V.Migirin esa ko‘chish hodisasining muhim muammolarini keltirib o‘tadi.

Tilshunoslikda V.A.Isangaliyeva, A.N.Kononov, L.Ten‘er kabi olimlar, o‘zbek tilshunoslaridan: Sh.Shoabdurahmonov, H.Ne‘matov, J.Eltazarov, T.Rustamov, R.Rasulov, D.O‘rinboyeva, A.Pardayev, Z.Isoqov, G.Karimova, Z.Burxanov, Sh.Normo‘minov, A.Uralov, A.Botirova⁴lar tomonidan so‘z turkumlarining o‘zaro aloqasi va ta’siri masalasi yoritib berilgan.

¹Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – Москва: Прогресс, 1988. – С.51.

²Щерба Л.В. Некоторые выводы из моих диалектологических лужицких наблюдений (рус.) // Приложение к книге Восточнолужицкое наречие. 1915. – С.65.

³Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Справочник по русскому языку. Словарь лингвистических терминов. – Москва: Оникс, 2003. – С.69.

⁴ Исенгалиева В.А. Служебные имена и послелогии в казахском языке. – Алма-Ата, 1957. – 148 с; Кононов А.Н. Послелогии в современном узбекском литературном языке. – Ташкент, 1951. – 392 с; Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – Москва: Прогресс, 1988. – 656 с; Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар. – Тошкент: ЎзФА, 1953. – 24 б; Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2006. – 169 б; Исақов З. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни. – Қўқон, 2011. – 92 б; Рустамов Т. Соф кўмакчилар. – Тошкент: Фан, 1991. – 124 б; Расулов Р. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзларнинг семантик-грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1983. – 112 б; Ўринбоева Д. Ўзбек сўзлашув нуткида ўзгармайдиган сўзлар (ёрдамчи сўзлар). Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1994. – 150 б; Каримова Г. Ўзбек тилида грамматикализация ҳодисаси: Филол.фан.номз. ... дис.автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б; Пардаев А. Ўзбек тилида кўмакчилар стилистикаси. – Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2008. – 158 б; Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. Монография. – Тошкент, 2013. – 199 б; Бурханов З. Ўзбек тилида кўмакчилар ва уларга вазифадош келишиклар прагматикаси

Biroq ko‘makchilashish, uning hosil bo‘lish mexanizmlari, boshqa lingvistik vositalar bilan munosabati maxsus o‘rganilmagan. Ko‘makchilashish jarayonidagi so‘zlar (ko‘makchisimon, ko‘makchilashgan, ko‘makchilashayotgan va tublashgan) tilning leksik, morfologik va sintaktik sathida faolligi, nutqiy jarayonda muhim hodisa sifatida qo‘llanilishi hamda ta’sirchanlik maqomiga egaligi, ko‘makchilashish jarayonidagi so‘zlar boshqa yordamchi turkumga oid birliklarga nisbatan o‘zida uslubiy, ekspressiv vazifa ifodalashi mumkin bo‘lgan vosita ekanligi ushbu tadqiqot ishining yaratilishi uchun asos bo‘ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq “Davlat tili ta’limining funksional xususiyatlari” nomli tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi o‘zbek tilshunosligida ko‘makchilashish hodisasining yuzaga kelish sabablari va til tizimidagi o‘rnini aniqlash, ko‘makchilashgan hamda ko‘makchilashayotgan birliklarning lisoniy xususiyatlarini tahlil qilish va nutqiy muloqotdagi vazifasini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari aro ko‘chish hodisasining konversiya va transpozitsiyadan umumiy va farqli jihatlarini aniqlash, bu jarayonning ko‘makchilar yuzaga kelishidagi ahamiyatini yoritish;

so‘z turkumlari aro ko‘chish hodisasi orqali o‘zbek tilining morfologik sathida yuz berayotgan o‘zgarishlarni aniqlash va bu jarayonning umumiy tamoyillarini asoslash;

mustaqil so‘zlarning yordamchilarga, xususan, ko‘makchilar tomon siljishi, bu turkum so‘zlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, tarkibining muttasil kengayib borishi, gap bo‘kalari bilan o‘zaro munosabati, tarixiy taraqqiyoti, morfologik tizimdagi o‘rnini aniqlash;

ko‘makchilashgan va ko‘makchilashayotgan birliklarning turli bosqichlarini aniqlash va lisoniy jihatdan tavsiflash;

ko‘makchilarga nafaqat grammatik birlik, balki nutqiy ta’sirchanlik vositasi sifatida qarash, emotsional-ekspressiv ma’nolarini aniqlash va turli matnlardan olingan faktik materiallar asosida dalillash;

ko‘makchilarning kontekstda anglatgan ma’nolarini tahlil etish, yangi hosil bo‘lganlarini o‘zbek tilining izohli lug‘atida aks ettirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tilidagi nasriy va nazmiy asarlar tarkibida, leksikografik manbalar matnidagi ko‘makchi vazifasida qo‘llanilayotgan so‘zlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tili so‘z turkumlari tizimining tarixiy taraqqiyoti va shakliy-ma’noviy o‘zgarishlari natijasida mustaqil so‘zlarning

(пресуппозицион аспект): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2008. – 27 б; Нормўминов Ш.Т. Ўзбек тили сўз туркумлари тизимидаги ядро-периферия алоқаларининг функционал-семантик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2020. – 177 б ; Uralov A.B. O‘zbek tili morfologik shakllari tizimida nomutanosiblik. Filologiya fanlari doktori diss. – Samarqand, 2023. – 251 b; Botirova A. So‘z turkumlarining birlamchi va ikkilamchi funksional-sintaktik tahlili. – Navoiy, 2021. – 429 b.

ko'makchilashuvi hamda bu turkum so'zlarning ayrim sememalari asosida yangi ma'noviy imkoniyatlarining kengayish xususiyatlarini aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada qiyosiy-tarixiy, qiyoslash, tavsiflash, tasniflash, umumlashtirish; komponent tahlil, diaxron va sinxron, funksional-semantik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek tilshunosligida so'z turkumlari aro ko'chish hodisasining konversiya, derivatsiya va transpozitsiyadan umumiy hamda farqli jihatlari aniqlanib, ko'makchilar yuzaga kelishdagi ahamiyati ochib berilgan;

mustaqil so'zlarning ko'makchilar tomon siljishi, turkum so'zlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi, tarkibining muttasil kengayib borishi, o'zaro munosabati, tarixiy taraqqiyoti, lisoniy maqomi, so'z turkumlari tizmidagi o'rni aniqlangan;

ko'makchilashish jarayonidagi birliklarning ko'makchisimon, ko'makchilashayotgan, ko'makchilashgan, tublashgan kabi turli bosqichlari, morfologik tizimdagi o'rni, semantik sathda nomustaqil so'zlar qatoridan joy olishi, lingvistik modellash tirish tamoyillari, funksional-sintaktik xususiyatlari asoslangan;

ko'makchilarda yadro-pereferiya (markaz-qurshov) munosabatining mavjudligi, pereferiya (qurshov) ochiqqligi sababli ma'no siljishi matnning emotsional-ekspressivligini yuzaga keltirishi turli badiiy va publitsistik matnlardan olingan faktik materiallar bilan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko'makchilashish hodisasining tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosalar o'zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy-nazariy ma'lumotlar berishi, ta'lim tizimida morfologik birliklarning o'zgarishiga oid nazariy va amaliy mashg'ulotlarning tashkil etilishi, darslik va qo'llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi dalillangan;

tadqiqot natijasida to'plangan materiallar o'zbek tili tarixi va o'zbek adabiy tili fanlarining morfologiya qismidagi ko'makchilarning semantik strukturasini to'ldirish bilan birga "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni boyitishga xizmat qiladi;

ko'makchilar ma'noviy guruhlarining mustaqil so'zlar hisobidan muttasil boyib borishi, ularning paradigmatic va sintagmatic munosabatlari, semantik struktura bo'yicha to'plangan materiallar sohaga doir yaratiladigan monografiyalar, dissertatsiyalar uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, ko'makchilashish hodisasi tahliliga zamonaviy tadqiq usullarining tatbiq etilganligi, chiqarilgan xulosalarning qiyoslash, tavsiflash, komponent tahlil kabi usullar bilan asoslangani, o'zbek tilshunosligida ko'makchilashish hodisasining tadqiqi bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy yutuqlar va ishonchli manbalarga tayanilgani, ilmiy-nazariy ma'lumotlarni berishda hamda havolalar olishda aniq ilmiy manbalardan foydalanilganligi, dissertatsiya natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, ularning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mustaqil so'zlarning yordamchilarga, xususan, ko'makchilar tomon siljishi, bu turkum so'zlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi, tarkibining muttasil

kengayib borishi, o‘zaro munosabati, tarixiy taraqqiyoti, morfologik tizimdagi o‘rni, so‘z turkumlari aro ko‘chish hodisasi orqali o‘zbek tilining morfologik sathida yuz berayotgan o‘zgarishlarning aniqlanganligi, konversiya hamda transpozitsiya hodisasi, ko‘makchilashgan va ko‘makchilashayotgan birliklarning turli bosqichlari aniqlangani va lisoniy jihatdan ochib berilganligi, natijada morfologik birliklar tizimi boyitilishiga xizmat qilishi asoslangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya materiallari va natijalaridan oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat va magistratura bosqichlari uchun “O‘zbek tili tarixi”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “Morfologiya”, “O‘zbek tili morfemikasi” fanlaridan darslik va qo‘llanmalar yaratishda, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni boyitishda, maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tilshunosligida ko‘makchilashish hodisasini tahlil qilish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlari aro ko‘chish hodisasining konversiya, derivatsiya va transpozitsiyadan umumiy hamda farqli jihatlari aniqlanib, ko‘makchilar yuzaga kelishdagi ahamiyati ochib berilgan xulosalardan davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan №IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani (hujjat kodi: OB21548211) bajarishda foydalanilgan. Natijada ushbu loyihaning nazariy qismi ilmiy asoslangan xulosalar, dalillar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

mustaqil so‘zlarning ko‘makchilar tomon siljishi, turkum so‘zlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi, tarkibining muttasil kengayib borishi, o‘zaro munosabati, tarixiy taraqqiyoti, lisoniy maqomi, so‘z turkumlari tizimidagi o‘rni aniqlangan xulosalardan O‘zRFA QQB Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 2-mart 17.01/68-son ma‘lumotnomasi). Natijada ko‘makchilarning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyoti, ushbu birliklarning shakllanishi hamda rivojlanishi yuzasidan loyiha materiallari boyigan;

ko‘makchilashish jarayonidagi birliklarning ko‘makchisimon, ko‘makchilashayotgan, ko‘makchilashgan, tublashgan kabi turli bosqichlari, morfologik tizimdagi o‘rni, semantik sathda nomustaqil so‘zlar qatoridan joy olishi, lingvistik modellashtirish tamoyillari, funksional-sintaktik xususiyatlariga oid “O‘zbek tilida ko‘makchilar (ko‘makchisimon, ko‘makchilashayotgan, ko‘makchilashgan, tublashgan) va yuklamalar izohli lug‘ati dasturiy majmuasi” yaratilib, Adliya vazirligining guvohnomasi olingan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 8-avgustda ro‘yxatdan o‘tkazilgan №DGU26530-sonli guvohnomasi). Natijada lug‘atlarda yuzaga keladigan ayrim so‘zlarning semantikasi, grammatik vazifasi hamda tarixiy etimologiyasi bilan bog‘liq muammolar hal etilgan;

ko'makchilar nafaqat grammatik birlik, balki nutqiy ta'sirchanlik vositasi ekanligi, emotsional-ekspressiv ma'nolari yuzasiga oid xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi tomonidan tayyorlangan "Assalom, Samarqand" va "Uchqun" teleko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 12-iyundagi 01-07/205 ma'lumotnomasi). Natijada ushbu teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashgan, ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

Mazkur tadqiqot natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Samarqand bo'limining she'riyat va adabiy tanqid kengashlarida, uyushma qoshidagi "Sadoqat" ijodiy to'garagi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining 2023-yil 14-iyun №35-sonli ma'lumotnomasi). Natijada so'z ko'chish hodisasi bevosita so'z ijodkorining ma'lum bir leksemaga okkazional ma'no yuklashi natijasida sodir bo'lishi anglashilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy maqola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta (respublika 7 ta) xorijiy (5 ta) jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning umumiy hajmi 154 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti ko'rsatilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi "**O'zbek tilshunosligida ko'makchilashish va turkumlararo ko'chish hodisasi**" deb nomlangan. "*So'z turkumlari aro ko'chish hodisasi tasnifi haqida*" deb nomlangan birinchi bo'lim dunyo tilshunosligida va turkiyshunoslikda so'zlarni turkumlash masalasi, tasniflash tamoyillari, so'z turkumlari aro ko'chish, morfologik-sintaktik sathda ko'chishga uchragan so'zning badiiy-estetik ta'sirchanlikni ta'minlovchi vositaga aylanishi, funksional almashinuv va to'liq ko'chish farqlari, morfologik sath va uning kengayishi, derivatsiya, so'z o'zlashtirish, ko'chishning (transpozitsiya) mohiyati, ko'chish hodisasi va uning nazariy asoslari, mustaqil turkum doirasidagi so'zning yordamchilashishi, substantivatsiya va uning atrofida sodir bo'ladigan ko'chish, so'z turkumlari doirasidagi ko'chish va uning uslubiy imkoniyatlari, emigratsion va

immigratsion transpozitsiya tushunchasi talqini, transpozitsiyaning shakllanishi va turkumlar tasnifi bilan bog'liq tadqiqotlar tahliliga bag'ishlangan. Mazkur bo'limda ko'chish hodisasi va u bilan bog'liq terminlar, ta'riflar keltiriladi.

Bobning ikkinchi bo'limi "*Transpozitsiya tushunchasi talqiniga nazariy yondashuvlar*" deb nomlangan bo'lib, bu qismda transpozitsiya talqiniga doir turli nazariy qarashlar haqida fikrlar bayoni berilgan. Jumladan, tilshunoslikda E.Kubryakov, V.Gak, P.Sobolev, O.Espersen, L.Ten'er kabi tadqiqotchilar, o'zbek tilshunoslaridan J.Eltazarov, A.Pardayev, Z.Isoqov, T.Rustamov, G.Karimova, F.Jumayeva kabi olimlar asarlarida so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ta'siri masalasi yoritib berilgan. Shunisi xarakterliki, bugungi kunda tadqiqotlarda ancha faol qo'llanilayotgan transpozitsiya termini zamonaviy tilshunoslikda bir xil talqinga ega emas va transpozitsiyaning turlari masalasida tilshunoslar hozirga qadar yakdil fikrga kelgan emas. Y.Apresyaning ko'rsatishicha, muayyan bir turkumga mansub so'zning lug'aviy ma'nosini saqlagan holda, ikkinchi turkumga xos vazifasida kelishiga oid dastlabki izlanishlar O.Espersen, L.Ten'erlar tomonidan olib borilgan. Bu hodisa "sintaktik transpozitsiya" deb yuritilgan. Ushbu hodisaning mufassil tavsifi mashhur fransuz tilshunosi Sh.Balli tomonidan ishlab chiqilgan. Olim transpozitsiyaning semantik va funksional tiplarini farqlagan. Uning fikriga ko'ra, faol lisoniy birliklarning o'z semantik xususiyatini saqlagan holda boshqa bir grammatik vazifaga xoslanishi – funksional transpozitsiya, so'z turkumlariga xos birlamchi vazifaning yangi lug'aviy ma'no hosil bo'lishi bilan birga o'zgarishi – semantik transpozitsiyani yuzaga keltiradi. Transformatsiya turlari barcha mustaqil va yordamchi turkumlar doirasida uchraydi. Sifat so'z turkumida *adektivatsiya*; ravish so'z turkumida *adverbializatsiya*; olmosh so'z turkumida *pronominalizatsiya* terminlari bilan izohlanadi. Har bir tur ma'lum qonuniyatlar asosida shakllanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, tadqiqotlarda so'z turkumlari orasidagi o'zaro ko'chish muammosi to'g'risida fikr yuritilganda, transpozitsiya va unga yaqin bo'lgan konversiya hodisasi nazarda tutiladi. Zamonaviy tilshunoslikda ko'chish hodisasi tavsifida tarixiylik va zamonaviylik nuqtayi nazaridan yondashiladi. Tilshunoslikda ko'chish turlari sifatida talqin etilayotgan transformatsiyada diaxron holat alohida o'rin tutsa, kontaminatsiya / konversiyada esa tadqiq qilinayotgan lisoniy hodisa tavsifida sinxron holat e'tiborga olinadi.

Bobning keyingi bo'limi "*Transpozitsiya va unga yondosh hodisalar*" deb nomlangan. Bu bo'limda transpozitsiyaning turli ko'rinishlari, jumladan, sintaktik transpozitsiya yoki noto'liq transpozitsiya va to'liq yoki morfologik transpozitsiya to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. *Sintaktik yoki funksional transpozitsiya* – bu boshqa so'z turkumi uchun xarakterli bo'lgan, bir so'z turkumining sintaktik vazifaga xoslangan so'z qo'llashda gavdalangan sintagmatik jarayondir. Morfologik transpozitsiya usuli affiksatsiya, shuningdek, konversiya hisoblanadi. Shuning uchun ayrim tadqiqotlarda morfologik transpozitsiya morfologik konversiya sifatida qaraladi. Shu o'rinda sintaktik va morfologik transpozitsiya yoki konversiya tushunchalari lingvistik jihatdan tahlilga tortilishi, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari belgilanishi lozimligi ma'lum bo'ladi. Tilshunoslikda bu hodisaga nisbatan "transpozitsiya", "konversiya", "substitutsiya", "transformatsiya" terminlari qo'llaniladi. Tadqiqotlarda bu terminlar faol bo'lib, aslida ko'chish bilan bog'liq

hodisani aks ettiradi. Shu ma'noda bir guruh tadqiqotchilar lisoniy birliklarning bir kategoriyadan boshqasiga ko'chishini transpozitsiya sifatida belgilaydilar. Lingvistik terminlar lug'atlarida transpozitsiya bir lisoniy shaklning boshqa vazifada, uning paradigmatic qatorda zid turishi sifatida talqin qilinadi. Ishda ko'chish ma'nosini ifodalovchi hodisalar va ularning transpozitsiyaga munosabati haqida fikrlar bayon etilgan. Shu o'rinda transpozitsiyaga yondosh derivatsiya, substitutsiya, konversiya hodisalar bilan munosabati haqida fikrlar aytilgan va faktik dalil hamda misollar asosida yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbek tilida ko'makchilashayotgan so'zlar”** deb nomlangan ikkinchi bobida hozirgi o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan va badiiy matnlar, shuningdek, nutq ko'rinishlarida faol qo'llanilayotgan ko'makchilashish jarayonidagi so'zlar: ko'makchilashgan, ko'makchilashayotgan, ko'makchisimon va tublashgan kabi guruhlarga ajratilgan holda tahlilga tortilgan. Ko'makchilarning lisoniy mohiyati, nutqiy faollashuv imkoniyatlari, ularni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar inobatga olingan holda ushbu turkum birliklarining genezisi va etimologiyasi xususida fikr yuritiladi.

Bobning *“Ko'makchilashish hodisasi talqiniga doir”* deb nomlangan birinchi bo'limida yordamchi so'z turkumlari, ularning lingvistik maqomi, grammatik tabiati, boshqa so'z turkumlariga ko'chishi va ayni vaqtda boshqa mustaqil so'z turkumlarining yordamchi so'zlarga ko'chib, grammatik vazifalar uchun xoslanishiga oid fikrlar keltirilgan. Tilshunoslikda yordamchi so'z turkumlari, xususan, ko'makchilarning yuzaga kelishi va nutq ko'rinishlarida faollashuvi haqida nazariy ma'lumotlar bilan birgalikda matn tarkibida yordamchilik vazifasida qo'llanilishi faktik asoslangan hamda ularning lingvokognitiv, lingvopragmatik aspektlari bilan bog'liq ko'plab masalalarni o'z ichiga olgan. Turkologiyada ko'makchi so'zlarning mavjud tasniflari bir qancha mezonlar asosida ishlab chiqilganligi, jumladan, ko'makchining etimologik tabiati, grammatikalizatsiyalashish darajasi, ularning holati, semantik-tipologik, struktural-semantik, leksik-semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari hisobga olingan holda tadqiq etilganligi haqida mulohazalar bayon etilgan. Turli tilshunos olimlarning qarashlari atroflicha tahlilga tortilgan va muayyan xulosalar, dalillar bilan asoslangan. Jumladan, A.A.Shaxmatov ko'makchilarni tasniflashda uning kelishik shakllari bilan bir paradigmatic qatorda turishini ta'kidlasa, N.Mahmudov va A.Nurmonovlar esa ushbu turkum birliklarining bog'lovchilik xususiyatiga e'tibor qaratadi. F.Abdullayev, J.Hamdamiyov, S.Mutallibov⁵ kabi tilshunos olimlar ko'makchi turkum birliklari grammatik munosabat shakllantirish uchun xizmat qiladi degan fikrlarni berib o'tadilar.

Ko'makchi turkumiga kirib-chiqib turuvchi leksik birliklar mavjudligi haqidagi fikrlari bilan rus funksional-kommunikativ grammatikasini o'rgangan M.V.Vsevolodov har bir ko'makchi o'ziga xos leksik ma'noga ega ekanligini, ko'makchi so'zning morfologik shaklining bir qismi emas, balki so'zning sintaktik

⁵ Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк (XI аср ёзма ёдгорликлари асосида). – Тошкент: ЎзФА нашри, 1959. – Б 122; Ҳамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. Иккинчи қисм. Тарихий морфология. Иккинчи бўлим. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2003. – Б 82; Абдуллаев Ф., Иброҳимова Ф. Ўзбек тилида бошқарув. – Тошкент: Фан, 1982. – Б 43.

shaklining tarkibiy qismi sifatida sintaksemaga kirishini⁶ ta'kidlaydi. Aynan **ko'makchilashish** haqidagi fikrlari bu jarayonni tabiiy deb qarashga undaydi. O'tning ko'makchiga ko'chishini maxsus tadqiq etgan T.I.Antonova ko'makchi guruhiga mansub birliklar o'tning grammatik ma'nosining yo'qolishi yoki zaiflashuvidan iborat⁷ ekanligini mohiyatan isbotlaydi. M.S.Bunina ham prepozitsionalizatsiya muammosiga to'xtalgan bo'lib, ushbu jarayon predmetlik kategoriyasining bartaraf etilishi natijasida sodir bo'lishini qayd etadi⁸.

Ko'makchilarning shakllanishi, o'zbek tilida so'z turkumlarining o'zaro munosabati va unda yuklamalarning o'rnini aniqlashga harakat qilgan Z.Isaqov turkiy tillarda so'z turkumlari va affikslarni tasniflagan M.Zakiyevning morfologik birliklarni nutqni tashkil qilishdagi o'rniga ko'ra uch guruhga ajratganligi haqida ma'lumot beradi: 1) fikrni tashkil qiluvchi muayyan tushunchalarni ifodalovchi birliklar; 2) so'zlovchining borliqqa munosabatini ifodalovchi birliklar; 3) gapni tashkil qiluvchi so'zlar orasidagi munosabatni amalga oshiruvchi birliklar. Birinchi guruhga mustaqil deb ataluvchi so'zlarni kiritadi: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish. Ikkinchi guruhga modal so'zlar, undovlar, yuklamalar kiritiladi. Uchinchi guruhga esa ko'makchi, **ko'makchilashgan so'zlar**, bog'lovchi va bog'lovchilashgan so'zlar mansub bo'lishini⁹ izohlaydi. "O'zbek tili grammatikasi"da ham shunga yaqin fikrlar mavjud bo'lib, unda "Hozirgi zamon o'zbek tilida ko'makchilarning ikki xili uchrashi, bular: *bilan, uchun, kabi, sari, sayin, qadar singari* mustaqil ma'nosini tamoman yo'qotgan so'zlar va *tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli, qarab, qaramay, so'ng, tashqari, beri, ko'ra, chog'li, uzra singari* ko'makchi vazifasida qo'llanuvchi, mustaqil so'zlardan (ot, sifat, ravish va fe'llardan) ko'makchiga ko'chgan so'zlar"¹⁰ – deyish bilan **ko'makchilashish – prepozitsionalizatsiya hodisasi** ekanligi e'tirof etiladi. Ushbu hodisa tilda mavjud, ammo nutqda har doim ham voqelanavermasligi haqidagi fikrlar izohi misollar bilan dalillanadi. Shuningdek, J.Hamdammovning ko'makchilashish jarayoni haqida keltirgan fikrlari buning isboti ekanligini ko'rishimiz mumkin: "... ularning ba'zilar qaysi turkumdan ajralib chiqqan bo'lsa, o'sha turkum bilan aloqasini hanuzgacha saqlab kelyapti (*qash, gird, o'tru, ro'para, ich, keyin* kabilar), ba'zilari esa o'zi ajralib chiqqan turkum bilan aloqasini butunlay uzgan, ularning etimologiyasi noaniq (*uchun, kabi, bashqa, ozga, sonra, ayru, beri* va boshqalar). Qayerdan kelib chiqqani noaniq, o'zgarmas shaklga ega bo'lgan ko'makchilarni **haqiqiy ko'makchilar** deb, *mundayn burunroq, tash aldyg'a, koshk yuzasinde, andyn sonraraq, bizin aramyzda* kabi kelishik, son, egalik va boshqa qo'shimchalar bilan ishlatila oladigan ko'makchilarni **ko'makchi otlar** deb hisoblash mumkin"¹¹ deya e'tirof etadi.

⁶ Всеволодова М.В., Клобуков Е.В., Кукушкина О.В., Поликарпов А.А. К основаниям функционально-коммуникативной грамматики русского предложения // – Москва, 2003, № 2. – С. 22-23.

⁷ Антонова Т.И. Переход существительных в предлоги // Учен. зап. Магнитогор. гос. пед. ин-та. – 1961, № 14. – С.37.

⁸ Бунина М.С. Из наблюдений над второобразными предложениями современного русского литературного языка // Учен. зап. Москва, 1954. № 33. – С.56.

⁹ Исаков З. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни. – Тошкент, 2001. – Б 12.

¹⁰ Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.541.

¹¹ Хамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. Иккинчи қисм. Тарихий морфология. Иккинчи бўлим. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2003. – Б.82.

Olim J.Eltazarovning soʻz turkumlari aro aloqa va koʻchishi, uning lisoniy, nutqiy va tafakkuriy asoslarini oʻrganish zarurligini, mustaqil soʻz turkumlarining yordamchi soʻz turkumlari bilan aloqasi, grammatikalizatsiya hodisalari¹² tadqiqotchilar oʻrganishi lozim boʻlgan masalalardan ekanligini taʼkidlab oʻtadi. Bu jarayon bugun ham dolzarbligini yoʻqotmaganligi sababli R.R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, G.H.Boqiyeva, M.M.Qurbonova, Z.Q.Yunusova, M.Q.Abuzalovlar muallifligi ostida nashr etilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” qoʻllanmasida quyidagi soʻzlar koʻmakchilashgan deya tahlil etiladi: (*old*), (*oldin*), (*orqa*), (*roʻpara*), (*qarshi*), (*avval*), (*keyin*), (*soʻng*), (*oxir*), (*tomon*), (*ost*), (*ust*), (*tag*), (*tepa*), (*yon*), (*uch*), (*ich*), (*oʻrta*), (*ora*) kabi oʻrin va payt maʼnoli ot, (*bosh*), (*qosh*), (*lab*), (*ogʻiz*), (*oyoq*), (*qorin*) kabi tana aʼzolari nomi, (*qariyb*), (*boʻylab*), (*boshlab*), (*koʻra*), (*deya*), (*deb*), (*atab*), (*oʻxshab*) kabi ravishdosh koʻp holda koʻmakchi vazifasida keladi va koʻmakchi sirasining boyishiga sabab boʻladi¹³.

Manbalarda qayd qilinishicha, mustaqil maʼnoli soʻzning koʻmakchilashishi uzoq davom etadigan jarayon sifatida bir qator shartlarni qamrab oladi. Xususan, koʻmakchilashish uchun toʻliq maʼnoli soʻzning kategorial maʼnosini unda relyativlik maʼnosini rivojlantirish va mustahkamlash yoʻnalishida oʻzgartirish zarur.

Bobning “*Koʻmakchisimon soʻzlarning koʻmakchiga oʻtishi*” deb nomlangan boʻlimida mustaqil soʻz turkumlariga oid til birliklarining koʻmakchilashish masalasi yoritilgan. Grammatikalizatsiyalashuv jarayoni izohlangan boʻlib, A.Pardayev bevosita koʻmakchilashish hodisasiga ham birday taalluqli boʻlgan soʻz turkumlarida koʻchish hodisasi mohiyatida grammatikalizatsiya yotishini taʼkidlaydi. Grammatikalizatsiya hodisasining mohiyati mustaqil lugʻaviy birliklarning oʻz denotativ maʼnosini yoʻqotib, umumlashgan maʼnolar kasb etishi natijasida yordamchi soʻz turkumlari va nihoyat qoʻshimchalarga oʻtishidan iboratdir. Koʻmakchilashayotganlik bosqichi deyilganda tilimizdagi ayrim soʻzlarning nutq faoliyati va matnda oʻzining lugʻaviy maʼnosidan uzoqlashib, koʻmakchiga tomon siljishi tushuniladi. Koʻmakchilashish jarayonining ushbu bosqichida soʻzlarning bu xususiyati nutq jarayonida va badiiy matnlarda boʻrtib turadi. Demak, **koʻmakchisimon soʻz** deganda, asosan, gapning maʼnosini toʻldirish yoki aniqlashtirish, lekin oʻzi mustaqil maʼno ifodalay olmaydigan, boshqa soʻz bilan birga ishlatiladigan til birligi hisoblanadi. Bunda koʻmakchisimon soʻzlar gapdagi asosiy soʻz yoki predikat bilan bogʻlanib, uning grammatik yoki maʼnoviy ahamiyatini kuchaytiradi. Shu bois, koʻmakchilashayotgan soʻzning badiiy matnda boshqa soʻzlarni aloqaga kiritishda tutgan oʻrni, bajargan vazifasi uni alohida olib emas, badiiy matnda boshqa soʻzlar bilan bogʻliqlikda qarash talab etiladi. Bu baʼzan ogʻzaki ijod namunalarida ham koʻrinadi. Soʻz turkumlarining oʻzaro ichki aloqasi nutqning turli vaziyatlarida grammatik maʼnoning voqe boʻlishiga va grammatikalizatsiyaning yuzaga kelishiga turtki boʻladi. Soʻzlarning semantik sathdagi oʻzaro yaqinlashuvi va soʻz semantikasining mavhumlashuvi ularning grammatik maʼno anglatuvchi vositaga aylanish jarayonini tezlatib, boshlangʻich

¹² Элтазаров. Ж. Сўз туркумлари ҳақидаги лингвистик назариялар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1996. – Б.118.

¹³ Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009. – Б.252-257.

grammatikalizatsiyani yuzaga keltiradi. Garchi o'zbek tilshunosligida mustaqil ma'noli leksemalarning *mustaqil so'z mustaqil - yordamchi so'z yordamchi so'z morfema (affiks)* tipidagi murakkab tarixiy tadrijiy bosqichni o'tagani avvaldan ma'lum bo'lsa ham, buning ichki va tashqi omillari atroflicha o'rganilgan, har bir muayyan holatda nega mana shu birlik yordamchi so'z mavqeyini kashf etdi, degan savollarga javob berilgan emas. Shuning uchun turkiy tillarda (jumladan, o'zbek tilida) grammatikalizatsiyaning nazariy masalalari hali o'z yechimini kutayotgan muammolardan sanaladi.

Tilshunos olim A.Pardayev yordamchi so'zlarning paydo bo'lishiga oid tahlillari natijasini to'rt bosqichli grammatizatsiya (bunda 1-bosqich – **simonlik**, 2-bosqich – **lashayotganlik**, 3 bosqich – **lashganlik**, 4-bosqich – **tublashganlik**) orqali ko'rsatib beradi. Olim nazarda tutgan **-simonlik** ko'makchilashish jarayonining ilk bosqichi bo'lib, unday ayrim so'zlarning o'z mustaqillik xususiyatidan uzoqlashib, ko'makchiga tomon siljishi tushuniladi. Ko'makchilashish jarayonining ushbu bosqichida so'zlarning bu xususiyati ko'proq badiiy matnlarda bo'rtib turadi. Shu bois ko'makchilashayotgan so'zning badiiy matnda boshqa so'zlarni aloqaga kiritishda tutgan o'rni, bajargan vazifasi uni alohida olib emas, badiiy matnda boshqa so'zlar bilan bog'liqlikda qarash talab etiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida quyidagi so'zlar *darajada, ziyoda, izmiga, izmida, muqobil, munosabat, tushiga, galda, fonida, chegarasida, yaxlit, qavmida, qobig'iga* ko'makchilash jarayonidagi so'zlar qatoriga qo'shish mumkin.

Bobning "*O'zbek tilida ko'makchilashayotganlik bosqichi*" bo'limida o'zbek tilida ko'makchilashayotgan so'zlar ham alohida guruhni tashkil qilishi, bu ko'makchilashish jarayonining ikkinchi bosqichi hisoblanishi, morfologik jihatdan egalik va kelishik affikslari orqali ko'makchilashish imkoniyati oshishi haqidagi fikrlar nazariy ma'lumotlar keltirib, ularga munosabat bildirilgan. va misollar orqali dalillangan. Tilimizdagi *aralash, bag'riga, bag'rida, barida, belida, buyoq, vaziyatda, vaqt, vaqtda, girdida, dam, damda, deganidek, doirasida, domiga, yordamida, zaylda, zaminida, zamirida, zamon, zamonda, zahot, zahoti, kasriga, kasridan, kezda, kezlarda, kelganda, komiga, ko'magida, labiga, labida, mavzuda, og'ushida, oralab, ortiq, payida, payt, paytda, pallada, pallasi, ro'parasiga, ro'parasida, ro'parasidan, sirasiga, tab, taqdirda, tani, tayanib, tobda, topda, tubiga, tubida, tubidan, uchida, chog', chog'da, yuqorida, yaqin, o'ngida, o'tib, qavatiga, qatori, qirg'og'iga, qirg'og'ida, quyida, quchog'ida, qo'ynida, qo'ltig'ida, holatda, jo'niga, jo'nidan, niyatida, oqibatida, qo'liga, qo'lida, tevaragida, tegrasida, ichidan* kabi so'zlar ko'makchilashayotgan so'zlar hisoblanadi. Ko'makchilashayotgan so'z deganda, boshqa turkumga oid so'zlarning nutq jarayonida ko'makchiga xos vazifalarda faol qo'llanilayotganligi tushuniladi. Bu holat, ya'ni bir so'zning boshqa turkumdan ko'makchiga o'tishi, ko'pincha tilda grammatik yoki semantik o'zgarishlarni ifodalaydi. Ko'makchilashayotgan so'zlar boshqa turkumdan (masalan, ot, fe'l, sifat) yordamchi so'z turkumiga o'tib, ma'lum bir grammatik vazifalarni bajaradi

Masalan, **Qatori**. "**O'zbek tilining izohli lug'ati**"da berilishicha, lug'aviy jihatdan tuya karvoni, poyezd ma'nosini bildiradi. Hozirgi o'zbek tilida, asosan, narsa yoki kishilarning bir yo'l (chiziq)da joylashgan holati, shunday joylashgan

tizimi ma'nosida qo'llanadi. Qator so'zi 3-shaxs egalik qo'shimchasini olib, qatori shaklida bo'lsa, ko'makchi vazifasida o'xshatish, qiyos munosabatini ("kabi", "singari" -dek vositalari vazifasini bajarib keladi, bundan tashqari "tengi" ma'nosini ham ifodalaydi) bildiradi.... "*Chamasi, o'shanda sizlar qatori (tengi) edimov, Farxodjon*" yoki " (E.A'zam. Shovqin. 46-bet). Agar qator so'zi egalik va o'rinpayt kelishigi qo'shimchalarini olib, **qatori / qatorida** ko'rinishida bo'lsa, **ko'makchilashgan hisoblanadi**: *Mana endi boshqa g'oliblar qatorida (kabi) xalqaro kinoko'rikka otlangan. Nimayam deymiz, haloli bo'lsin!*" (E.A'zam. Shovqin. 9-bet). Shu kabi -lashayotganlik bosqichidagi so'zlar tahlil qilingan.

Bobning "*So'z ko'chishida (-lashganlik) -ko'makchilashganlik bosqichi*" deb nomlangan 4-bo'limda tilda ko'makchi funksiyasini to'liq bajara oladigan birliklar tahlili keltirilgan. Bu guruh tarkibiga *avval, arafa, atrof, badaliga, badalida, baravariga, biqin, beri, bosh, boshida, boshqa, yonida, qanot, qarab, qaraganda, vajidan, tashqari, boshlab, maqsadida, ichida, oldiga, oldida, orqa, ora, kabi* so'zlarning ko'makchilashganlik bosqichida turgan til birliklari ekanligi, bu jarayonda ko'makchi so'zning umumiy grammatik ma'nosi sintaktik sath doirasida tahlil qilindi. Jumladan, **vajidan** ko'makchilashganlik bosqichidagi ushbu so'z mazmuniga ko'ra sabab ma'nosiga ega. Gapda qanday mazmundagi so'zga bog'lanib kelishiga ko'ra, biror narsaga aloqadorlikni, sabab-munosabatini bildiradi hamda *jiyatidan, xususidan; sababi bilan, sababli* kabi so'zlarga yaqin turadi. *M: Qarigani vajidanmi, zamon o'zgargani tufaylimi, yo bunday maskanda, bunday ayyomda biror kori hol bo'lmog'iga asos yo'qligi uchunmi, qisqasi, uni odatda vokzal-pokzalda tentirab yuradigan mayxo'r muhtalolardan deb fahmlab, tishlari orasida vishillab amr qildi: - Shag'om marsh!* (E.A'zam. Shoirning to'yi. 3-bet.).

Padarla'nati Yakshi Yok, sovuqqonlik qilibmi (sobiq Pakanamiz na dohiy, na mashhur qo'mondon edi-da!) yoki keksalik vajidanmi, muolaja asnosi biron xatolikka yo'l qo'ydimikan? (E.A'zam. Pakananing oshiq ko'ngli. 28-bet.) Keltirilgan misollarning birinchisida *xususidan* ma'nosi, ikkinchisida esa *sabab* ma'nosi anglashilmoqda.

Ishning "**Ko'makchilashayotgan so'zlarning funksional va ma'noviy xususiyatlari**" deb nomlangan uchinchi bobi uch bo'limdan iborat. O'zbek tilida yordamchi so'z turkumlari, jumladan, ko'makchilar atroflicha o'rganilgan bo'lib, birinchi bo'lim "*Ko'makchilashayotgan so'zlarning lisoniy maqomi*" deb nomlangan. So'z turkumlarini tasniflashda uch belgi birligi: so'zning semantik, morfologik, sintaktik belgilari asosiy mezon sifatida tasnif etiladi. O'zbek tilshunosligida ushbu turkum birliklari H.Ne'matov, J.Hamdammov, S.Muttalibov T.Rustamov, Sh.Shoabdurahmonov, J.Eltazarov, A.Pardayev, B.Umurqulov¹⁴ kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ularning uch belgi (morfologik, semantik,

¹⁴ Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар. – Тошкент: ЎзФА, 1953. – 24 б; Муталлибов С. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк (XI аср ёзма ёдгорликлари асосида). – Тошкент: ЎзФА нашри, 1959. – 250 б; Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI – XII в.в. – Тошкент: Фан, 1989; – 192 с. Рустамов Т. Соф кўмакчилар (Ўзбек тили соф кўмакчиларининг тарихий тараққиёти). – Тошкент: Фан, 1991. – 124 б; Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий университети, 2006. – 169 б; Ҳамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи. Иккинчи қисм. Тарихий морфология. Иккинчи бўлим. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2003. – 180 б; Умурқулов Б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Термиз, 2012. – 150 б.

синтактик) asosidagi tadqiqotlari mavjud. Yuqorida qayd etilgan qarashlar asosida soʻzlarni tasniflashga bagʻishlangan ishlar talaygina¹⁵. Tilshunos olim J.Eltazarov hozirgi oʻzbek tilidagi ushbu soʻz turkumini hosil qiluvchi birliklarini funksional-semantik mezon (nominativlik, nonominativlik, nominativ funksiya, relyativ funksiya, deytik funksiya)lar asosida koʻrsatib berishga harakat qilgan. Olim soʻz guruhlari – turkumlarining tarixiy-geneologik, tafakkuriy va ierarxiyali oʻzaro aloqasini til sathida tekshirib boʻladi, nutqiy-situativ xususiyatlari esa nutq sathida amalda boʻladi¹⁶ degan fikrlari bilan soʻz turkumlari aro koʻchish nutqiy xususiyat kasb etishini alohida taʼkidlagan. J.Hamdammov koʻmakchilar masalasiga tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashgan boʻlib, mustaqil soʻz turkumlaridan oʻsib chiqqan degan fikrlarni keltirib oʻtadi. T.Rustamov oʻz tadqiqotlarida koʻmakchilar mustaqil turkumlardan shakllanganligini eʼtirof etadi.

Dissertatsiyaning *“Tilshunoslikda vazifadosh koʻmakchilar tadqiqi”* boʻlimida funksional koʻmakchilar, ularning oʻziga xos xususiyatlari, matn tarkibida namoyon boʻlishi asosli dalillar bilan yoritilgan. Oʻzbek tilshunosligida bu borada olib borilgan ishlar tahlil etilgan. Jumladan, Sh.Shoabdurahmonov, T.Rustamov¹⁷ ishlari bu borada olib borilgan tadqiqotlarning debochasidir. E.Fozilov tadqiqotlarida **koʻmakchilashgan** ravish va ravishdoshlar (koʻra, beri, tegi, qodʻy) haqida fikr yuritiladi. Hozirgi oʻzbek tilida ham ushbu bosqichdagi soʻzlar mavjud boʻlib, bunday koʻmakchilar kontekstual nutqiy koʻmakchilar hisoblanadi. Koʻpchilik tilshunoslar funksional koʻmakchilarni qaysi soʻz turkumiga oidligiga koʻra guruhlaydi, ayni shu tasnifning oʻzi ham funksional koʻmakchilar doirasining doimiy kengayib turishini koʻrsatadi. T.Rustamov **sifat – koʻmakchilarga ortiq, tashqari, boshqa, yaqin, qarshi; feʼl – koʻmakchilar: boshlab, tortib, qaraganda, boʻylab, koʻra, qarab, qarata; ravish – koʻmakchilar: boʻyicha, nisbatan, ilgari, avval, buyon, soʻng, keyin, beri, burun; ot – koʻmakchilar: old, tomon, tag, ost, ichi, yon, usti, ora, xususida, toʻgʻrisida, haqida, oʻrtasida, bilan, yuzida, yuzasidan, soyasida, qoshida**¹⁸ kabilarni kiritadi.

Funksional koʻmakchilarning morfologik shakliga koʻra va boshqarish (kelishik shakllarini qabul qilgan otni boshqarib kelishiga diqqat qaratilgan) shakliga koʻra farqlanadi. Yuqorida ushbu tasnif keltirilgan. *M: Qarorgohimiz qorga koʻmilishidan bir kun avval uzoq manzilga konsert berishga bordi* (E.Aʼzam. Shovqin. 49-bet). Endi shu oʻrinda koʻmakchilarning oʻziga xos jihatlari badiiy matnlar asosida tahlil qilishga harakat qilamiz. Matn tarkibida qoʻllanilgan **avval** funksional koʻmakchi hisoblanib, morfologik shakliga koʻra ravish; boshqarish shakliga koʻra bosh va chiqish kelishigidagi otni oʻzidan keyin kelgan feʼlga (baʼzan ot va otlashish xususiyatiga ega turkumlarga) tobe holatda bogʻlaydi. Avval soʻzining koʻmakchi vazifasida kelishi **modeli quyidagicha: -dan + avval, ilgari, burun, qadim, muqaddam.**

¹⁵Мадрахимов И. Ўзбек тилида сўзларнинг серкирралиги ва уни таснифлаш асослари. Филол.фанлари номзоди... дис. – Тошкент, 1994. – 141 б.

¹⁶Элтазаров Ж.Д. Сўз туркумлари парадигмасидаги ўзаро алоқа ҳамда кўчиш ҳоллари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети, 2006. – Б. 10.

¹⁷Рустамов Т. Соф кўмакчилар (Ўзбек тили соф кўмакчиларининг тарихий тараққиёти). – Тошкент: Фан, 1991. – 124 б; Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар. – Тошкент. 1953. – 24 б.

¹⁸Рустамов Т. Хозирги ўзбек адабий тилида кўмакчилар. – Тошкент, 1965. – Б. 81.

